



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 17-18 (914-915)
23-dekabr, chorshanba
2020-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

ULKAN HUQUQIY IMKONIYAT

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 7-dekabr kuni – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilin-ganining 28 yillik bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabriklari har birimizning qalbimizda kelajakka bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamladi.

Bosh qomusimizning asosiy qoida va tamoyillariga asoslanib, Harakatlar strategiyasini qabul qilish asnosida boshlangan keng ko‘lamli demokratik islohotlar bugun o‘z samarasini bermoqda. Konstitutsiya islohotlarning huquqiy poydevori sifatida shu qisqa davr ichida qabul qilingan 5 ta kodeks va 250 ga yaqin qonunlarga huquqiy manba bo‘lgani guvohi bo‘lamiz.

Mamlakat rahbari tabiri bilan aytganda, konstitutsiyamiz – o‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi, odamlarimizning dunyo-qarashi butunlay o‘zgargani, har bir yurtdoshimiz mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sayotgani Bosh qomusimizning hayot-baxsh qudrati va ulkan salohiyatidan dalolat beradi.

Prezidentimiz o‘z tabrigida “Konstitutsiyamiz mohiyatiga chuqur singdirilgan demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat hamda insonparvarlik tamoyillarini ta‘min-

lash bo‘yicha mamlakatimizda tizimli va ortga qaytmaydigan demokratik islohotlar amalga oshirilayotganini” alohida ta‘kidladi.

Shuningdek, “Asosiy qonunimizda kafolatlangan malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va kuchli ijtimoiy himoyani ta‘minlash bo‘yicha har bir insonning huquqlarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Pandemiya davrida aholi sog‘lig‘ini saqlash, ishsiz qolgan fuqarolarga yordam berishga, tadbirkorlarga birinchi darajali e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 10 trillion so‘m fondga ega bo‘lgan Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi tashkil etilib, uning mablag‘lari sog‘liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilmalar, aholi va korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi. Yil davomida 500 mingdan ortiq tadbirkor va 8 milliondan ziyod fuqaro uchun 34 trillion so‘mga yaqin imtiyozlar berildi, ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va bandlikni oshirishga 2,6 trillion so‘m qo‘srimcha mablag‘ ajratilgan”i to‘g‘risida ayтиб o‘tdi.

Bu ezgu ishlar nafaqat pandemiya va uning oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy inqirozni yumshatish imkonini bermoqda, balki xalqimizning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamladi.

Yangi O‘zbekiston – maktab os-tonasidan boshlanadi, degan g‘oya asosida umummiliy ta‘lim-tarbiya tizimini yanada isloh qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san‘at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshi-

rish, yoshlarning, ayniqsa, qizlarimizning iste’dodlarini namoyon etishga shart-sharoit yaratish maqsadida ko‘plab loyihalar amalga tadbiq qilinyapti.

Qolaversa, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, ma’naviy salohiyatini va mudofaa qudratini yuksaltirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, davlatimiz sarhadlari daxlsizligini ta‘minlash, jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlikni, millatlararo do‘stlik va totuvlikni asrash, Asosiy qonunimizning hayotimizdagи o‘rni va ahamiyatimi keng targ‘ib etishda barcha soha vakkari hamqadam bo‘lishimiz kerak. Yosh avlod qalbida ona Vatanga mehr va sadoqat tuyg‘ularini jo‘sh urdirish, Konstitutsiyamiz va boshqa qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash asosiy burchimizdir.

Davlat rahbari yana bir gapni alohida ta‘kidladilar: “Yangi O‘zbekiston” degan ibora xalqaro maydonda nafaqat yangi tushuncha, balki real ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilinmoqda.

Konstitutsiyamiz yaratib bergan ulkan huquqiy imkoniyatlarning samarasi bo‘lgan bunday yutuq va nati-jalar barchamizga, albatta, yuksak g‘urur va iftixon bag‘ishlaydi”.

Bugun xalqimizning qalbiga faxr tuyg‘ularini baxshida etib turgan bosh qomusimizda belgilangan asosiy tamoyillarni amalda ko‘rsatish uchun har birimiz faol bo‘lishimizni davrning o‘zi talab qilyapti.

O‘yaymanki, bu muqaddas yo‘lda institutimiz jamoasi yanada jonbozlik ko‘rsatadi.

TARAQQIYOTNING TAMAL TOSHI



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 30-oktyabrdan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Mazkur videoselektor yig'ilishing 86-sonli Bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida 2020-yil 30-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish to'g'risida"gi qo'shma qaror imzolandi. Unga ko'ra te-

kishli oliy ta'lim muassasalariga biriktirilgan umumiy o'rta-ta'lim muassasalari o'qituvchilarining masofadan turib malakasini oshirish imkoniyatini ta'minlovchi elektron platformani joriy etish va uning uzlusiz ishlashini tashkil etish hamda elektron platformani o'quv resurslari bilan ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari yuklatilgandi.

Bu borada ishlarni olib borish yuzasidan Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga Toshkent shahri Yashnobod tumanida joylashgan 67-, 153-, 198-, 230-, 244-, 226-hamda Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi 13-, 16-, 26-, 32-, 51-, 56-maktablar bilan fakultetlar va kafedralar hamkorlikda amalga oshiradigan vazifalar rejasini ishlab chiqildi.

Unga ko'ra har bir maktabdagi ta'lim sharoitini ya'ni maktabda o'quvchilarning o'qishi uchun yaratilgan sharoitlar (material ta'minoti, o'quv sinflarining holati, jihozlanishi, laborator mashg'ulotlar uchun jihoz va sharoitlar holati)ni hamda maktabda har bir fan kesimida (biologiya, ximiya, matematika, tarix, o'zbek tili, rus til, ingliz til) salohiyati o'rganiladi. Bunda har bir o'qituvchi uchun test savollari va og'zaki so'rov asosida fan bo'yicha umumiy bilim darajasi

100 ballik reyting asosida bahola-nadi. Yetarlicha ball to'play olma-gan o'qituvchilarga reja asosida malaka oshirish hamda o'z ustida mustaqil ishlash orqali bilimni oshirib borish qat'iy belgilandi.

Hamkorlik rejasida tegishli maktablarda institut profes-sor-o'qituvchilari tomonidan yuqori sinf o'quvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy moyilligi o'rganiladi. Har bir o'quv-chini so'rvonoma asosida kasbiy moyilligi (keyinchalik oliy yoki o'rta-maxsus ta'limi bo'yicha ta'limni davom ettirishi) diag-nostikasini o'tkazish hamda har bir o'quvchi uchun umumta'lim fanlari bo'yicha test sinovlari o'tkazish ham belgilangan.

Maktabda ota-onalar, mahalla va tuman xalq ta'limi bo'limi bilan birgalikda muhokama o'tkazib, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash ishlari olib borilyapti. Bunda maktablarga biriktirilgan kafedralar tomonidan fanlar bo'yicha tayyorlov kurslari tashkil etish hamda tayyorlov kurslarini haftalik grafigi tuzilib, kasbiy moyilligi, qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib, o'quvchilarga mashg'ulotlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Institut (kafedra) ilmiy xo-dimlari va doktorantlarni jalb etgan holda iqtidorli o'quvchilar bilan maqsadli ishlash yo'lga qo'yildi. Bunda iqtidorli o'quvchilar uchun biologiya, kimyo, ingliz tili, informatika fanlari to'garaklarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish hamda maktablarning iqtidorli o'quvchilari o'rtasida biologiya va kimyo fanlari bo'yicha "Toshkent pediatriya tibbiyot instituti olimpiadasi"ni o'tkaziladi hamda

eng yaxshi o‘quvchilar uchun “Toshkent pediatriya instituti stipendiyasi” joriy qilinadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yana bir qator ustuvor vazifalar belgilab olindi. Xususan, Tibbiy-pedagogika ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalarining amaliyotini maktabda tashkil etish; maktabda ustuvor qilib belgilangan tayanch fanni belgilash va ushbu fan bo‘yicha kafedra filiali va laboratoriyasini tashkil etish; o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida har oyda bir marta “kasblar kuni”ni o‘tkazish, maktab o‘quvchilarini katta muvaffaqiyatlarga erishgan insonlar bilan uchrashuvlarini tashkil etish; “5 ta tashabbus” doirasida maktabda har oyda bir marta amalga oshirilayotgan ishlarni bo‘yicha uchrashuvlar tashkil etish; maktabdagi ijtimoiy muhit va o‘zaro munosabatlarni o‘rganish, mavjud muammolarning yechimi bo‘yicha ota-onalar, mahalliy hokimlik va deputatlar kengashi



bilan hamkorlik qilib, har oyda bir marta uchrashuvlar yo‘lga qo‘ymoqda.

Institut tomonidan maktab-larning o‘quv laboratoriya sinflari, kutubxona, informatika, kasbga yo‘naltirish o‘quv xonalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash va yuqorida to‘xtalib o‘tilgan ishlarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi

ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu-havasligicha qolib ketadi.

Prezidentimiz asosiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab berdi. Endi ularni amalga oshirishga kirishmog‘imiz lozim.

*Q. HAITOV,
Toshkent Pediatriya tibbiyot
institutining o‘quv ishlari
bo‘yicha prorektori*

KOREYSLAR O‘ZBEK TILINI O‘RGANISHMOQDA

So‘nggi yillarda oliy o‘quv yurtlarida xorijiy talabalar soni oshayotgani diqqatga sazovor bo‘lib, bu o‘z navbatida institutimizning nufuzi oshayotgandan darak beruvchi o‘zgarish sanaladi.

Bizning institutimizda ham so‘nggi yillarda xorijiy talabalar soni ancha ko‘payib qoldi. Shu jumladan, Janubiy Koreya Respublikasidan kelgan talabalar soni ham yildan yilga oshmoqda. Ular o‘z kasbini o‘rganishi baravarida o‘zbek tilini ham o‘rganishmoqda. Avvallari qiyin bo‘lib tuyulgan o‘zbek tili bir

necha darsdan so‘ng qiziqarli bo‘lib tuyulmoqda. Onlayn dars o‘tayotgan boshqa ustozlar ham koreys talabalarining o‘zbek tilini o‘rgana boshlaganini darrov his qilishdi. Chunki ular o‘zbekcha “Assalomu alaykum!”, “Xayrli kun!” kabi so‘zlar bilan dars boshlanishida ustozlariga murojaat qilishsa, minnatdorchilikka xayrlashuv so‘zlarini darsdan so‘ng ayta boshlashdi.

O‘zbek tili orqali ular yurtimiz zaminiga kelib o‘qiy boshlagach, muloqot imkoniyatiga ega bo‘lishlarini juda yaxshi bilishadi. Har bir inson uchun

boshqa millat vakillarini uning ona tiliga e’tiborini ko‘rish ham zavqli, ham g‘urur hissini uyg‘otadi. Albatta, yurtimizda tahsil olish uchun kelishayotgan talabalarining davlatimiz tilini o‘rganishdagi ishtiyoqlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bizning burchimiz. Buning uchun xorij talabalariga o‘zbek tilini o‘rgatuvchi turli darslarda o‘quv adabiyotlari yaratish uchun yurtimizda qizg‘in ishlarni olib borilmoqda. Bizning institutda ham bu ishlarni kiritildi va reja bo‘yicha ishlarni boshlandi.

K. TURDIYEVA

OGOHLIK – DAVR TALABI

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida “Yoshlar orasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va giyohvandlikning oldini olish” mavzularida davra suhbat bo‘lib o‘tdi.

Unda Yunusobod tumani IIOFMB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik M.Rahimov, Tosh.PTI Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektor M.Ahmedova, 1-Pediatriya ishi fakulteti dekani A.Rahmatullayev, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i A.Xudayberdiyev, Murabbiylar kengashi raisi S.Begmanov, 1-Pediatriya fakulteti 6-kurs dekan muovini U.Ruzikulov, Yoshlar bilan ishslash bo‘limi uslubchilari N.Nurmetova va talabalar qatnashdi.

– Talaba-yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarliklarni oldini olish, ijara yashovchi talabalarining yashash va o‘qishiga ko‘maklashish, zarur shart-sharoit yaratib berish hamda turli salbiy g‘oyalar xatarlaridan ogoh etish, hozirgi pandemiya sharoitida o‘zi va yaqinlari sog‘lig‘iga befarq bo‘lmashlik, jamoat joylarida oraliq masofani saqlash, sovuq kunlarda issiq kiyinislari, karantin qoidalariga qat’iy riyoja etishlari zarur, – dedi TPTI Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektori M.Ahmedova.

– Shuningdek, 1-kurs talabalarini institutda amalda bo‘lgan ichki tar-

tib-qoidalar, odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilishga chaqiramiz.

Profilaktik tadbirlar nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda, balki shaxsnı jamiyat uchun foydali ishlarni qilishga undaydi, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma’naviyatlri, mustaqil va erkin fikrlaydigan, har tomonlama sog‘lom, barkamol avlod sifatida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– Mamlakatimizda talaba-yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, qabul qilinigan huquqiy qoidalar va xavfsizlik qoidalariga amal qilishi zarur, – dedi Yunusobod tumani IIOFMB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik M.Rahimov. – Yurtimizda huquq-tarbotni mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlaydigan samarali, ko‘p bosqichli profilaktika tizimini yaratishga doimiy e’tibor qaratilmoqda. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘isida»gi qonunning qabul qilinganligi ham ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu boroda mamlakatimizda alohida ahamiyat qaratilib, huquqbuzarliklarning oldini olish, umuman, bevosita profilaktika bilan bog‘lik ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Qolaversa, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish



bo‘yicha institutsional asoslar shakllantirilgan.

– Ijarada yashovchi talabalarining ijtimoiy-maishiy ahvoli, xonardon holati va uy egalari shaxsi, institutga qatnashi, ijara narxlari, turli salbiy g‘oyalar xatarlaridan ogoh etish va mavjud muammolarini bataysil o‘rganib, joyida bartaraf etish bo‘yicha murabbiylar kengashi jamoasi tomonidan muntazam o‘rganishlar olib borilyapti, – dedi bosh murabbiy S. Begmanov. – Ijarada yashovchi talabalardan asossiz ijara shartnomalar talab qilinmasligi kerak. Bunday vaziyat yuzaga kelgan taqdirda institut murabbiylar kengashi raisiga, rektorat va dekanatga hamda institutga biriktirilgan Yunusobod tumani IIOFMB profilaktika katta inspektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish lozim.

Kechada, shuningdek, barcha talabalarga telefon raqamini yozdirib ko‘chada, uyda, institutda, jamoat joylarida muammolarga duch kelsa, bemalol murojaat qilishlari mumkinligi huquqiy yechim topishga yordam berishi aytib o‘tildi.

Huquqbuzarlik, jinoyatchilik sodir etilmasligi, bu holatlarning oldini olib borish bo‘yicha talaba-yoshlar o‘rtasida doimiy targ‘ibot ishlari olib borilyapti.

Darhaqiqat, talabalarining yashash va o‘qishiga ko‘maklashish, zarur shart-sharoit yaratib berish hamda turli salbiy g‘oyalar xatarlaridan ogoh etish maqsadida o‘tkazilgan tushuntirish ishlari o‘z samarasini berayotir.

Asomiddin XUDOYBERDIYEV



TALABALAR UChUN HAM AMALIYOT, HAM IMKONIYAT

Prezidentimizning 2020-yil 10-noyabrda-gi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘-risida”gi qarori ijrosi doirasida Qashqadaryoda keng qamrovli tadbirlarga kirishildi.

Ushbu qaror ijrosi doirasida Qashqadaryoda tibbiyat OTMlari talabalari va magistrleri ham faol qatnashmoqda.

Tibbiyat yo‘nalishidagi OTMlari bakalavriatning yuqori bosqich talabalari, magistratura, shuningdek, klinik ordinatura (rezidentura)ning 763 nafar qashqadaryolik talabasi, ularning 75 nafar murabbiysi vohada o‘tkazilayotgan tibbiy xatlov antropometriya tadbirlarida ishtirok etyapti.

Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida o‘zi istiqomat qiladigan hududlarga biriktirildi. Talabalalar murabbiylari va tibbiyat guruqlarida oilaviy shifokorlar nazorati ostida antropometriya tadbirlariga ko‘maklashmoqda.

Tasavvur qiling, bir xonadonda besh nafar yurdoshimiz yashasa, barchasining bo‘y uzunligi, tana vazni, bel aylanasi, tana vazni indeksi, bel aylanasi (bolalarda bosh va ko‘krak aylanasini ham), arterial qon bosimi, pulsi, saturatsiyasini o‘lchash, ularni o‘ta aniqlik bilan elektron bazaga kiritish va tegishli tartibda targ‘ibot suhbatini o‘tkazish qanday mashaqqatli va nozik jarayon. Har bir xonadonda buncha ishni bajarishning o‘zi bo‘lmaydi. Shu sababli har bir kishi bu tadbirning o‘z salomatligi uchun muhim ekanligini anglab yetishi, bu tadbirlarda faol qatnashishi, xatlov kuni oilaning har bir a’zosining uyda bo‘lishini ta’minlashi kerak.

Birlamchi bo‘g‘inning yangi tizimini namunaviy tarzda shakllantirish – har bir tibbiyat xodimidan katta mas’uliyat talab etadigan jarayon. Ayniqsa, tibbiy xatlov antropometriya tadbirlari ga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu ishni birgina patronajga tashlab qo‘ysak, yana taxminiy yoki yolg‘on statistika yuzaga kelishi mumkin. Xonadondagi xatlovda belgilangan har bir mezon



bo‘yicha raqamlar real bo‘lishi shart. Zero, biz hozir faqat birlamchi ma’lumotlarni jamlayapmiz, keyinroq bu ma’lumotlarning dinamikasi bo‘yicha yana ishlanadi, tahlil qilinadi. Tibbiy xatloving yana bir ahamiyati shundaki, bu pandemiya sharoitida kuzatilish ehtimoli bo‘lgan ikkinchi to‘lqin oldidan o‘ziga xos tayyorgarlik va tashxislash jarayoni hamdir. Xatlov paytida pulsoksimetrda xonadondagi har bir kishining saturatsiyasi o‘lchani-shi, shuningdek, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha individual suhbatlarning tashkil etilishi, albatta, bu borada o‘z samarasini berishi, shubhasiz.

Mazkur jarayonga jalb qilingan yuqori bosqich bakalavr talabalari va magistrler o‘z uyida yashab, o‘zlariga yaqin hududlardagi poliklinikalarda olgan nazariy bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda mustahkamlamoqda.

*Xasanxo‘ja ABIDOV,
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha
maslahatchisi – institut
Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi
Yoshlar Parlamenti a’zosi*

“ChORLAR BIZNI “NISHONAMIZ”



Iste'dodlarni muhit shakllantiradi degan gap bor. Tibbiyot sirlarini egallab, insonlar salomatligini mustahkamlash yo'lida bel bog'lagan badiiy ijodga oshufta ko'ngillarni o'z atrofida birlashtirgan "Nishona" to'garagi ham aynan mana shunday adabiy muhitni yaratgan. Yaqinda nashrdan chiqqan "Chorlar bizni "Nishonamiz" to'plami ham buning yaqqol isbotidir. Bu to'plamdan Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida turli yillarda o'qigan va yurtimizda tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan mualliflarning ijodiy ishlari jam bo'lgan. Ularning o'z sohalarini egallahda, jamiyatda o'z o'rnnini topishi da va kasbiga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashiga institutdagi yosh ijodkorlar "Nishona" to'garagi katta hissa qo'shgan.

Institutda o'tkazilgan yangi kitobning taqdimoti-da yozuvchi, shoirlar va havaskor ijodkorlar ishtirot etdi. Kitobga mazkur institutda 1992-yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan "Nishona" adabiy to'garagi qatnashchilarining ijod namunalari kiritilgan. Xususan, Muazzam Ibrohimova, Nilufar Asqarova, To'lqin Abdullayev, Abror Pirriyev, Nosir Suyunov va boshqa ko'plab taniqli ijodkorlarning asarlari o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.



Taqdimotda ijodkorlar Nurulla Chori, Ma'mura Zohidova va institut rahbariyati, o'qituvchilari yangi to'plam haqida so'z yuritdi. 18 yildan buyon institutda shu to'garakni boshqarib kelayotgan shoira Kavsar Turdiyeva faoliyati haqida iliq fikrlar bildirildi.

– Mana, oradan necha yillar o'tib ketdi, ammo "Nishona" to'garagini, Kavsar opani doim hurmat bilan, iliq mehr bilan eslayman, – dedi Muazzam Ibrohimova. – Ehhe, bizning to'garakdagi tadbirlarimiz, bahslarimiz, radio, televide niye va tahririyatlardagi uchrashuvlar, bolajonlar uchun yaratgan sahna asarlarimiz. Bular mening bolalar ijodkori sifatida shakllanishimga asos bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi.

– "Nishona"chilarimizning kitobi taqdimoti bugun katta, yorug' va zamonaviy xonada o'tkazilapti, – deydi shoira Kavsar Turdiyeva. – Avvallari tor, sovuq va kichik xonada ijodkor talabalar bilan adabiyot haqida suhbatlashardik. Tibbiyot va adabiyot bir biriga chambarchas bog'liqligi haqidida bahslashardik. Ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmasligi haqida so'z yuritardik. Bugun to'garagimizning ilk qaldirg'ochlari nufuzli joylarda ishlaydi. Adabiyot yo'lidan ketib, taniqli shoira va jurnalist bo'lganlari ham borligi meni quvontiradi. Ushbu to'plamda to'garagimizda sochilgan urug'lar bo'y ko'rsatgani, meva bergani bizni quvontiradi.

Taqdimot mushoira kechasiga aylanib ketdi. Bir vaqtlar talaba bo'lgan, hozirgi kunda tibbiyot sohasida turli lavozimlarda ishlayotgan "Nishona"chilar she'rlaridan namunalar o'qildi.

"Nishona" to'garagining institut talabalarini badiiy adabiyotga, ijodkorlikka, kitobxonlikka muhabbat qo'yishida qo'shayotgan ulkan hissasi bardavom bo'lib, ular orasidan yana ko'plab elimizning ardoqli ijodkorlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

Dilafro'z ChORIYEVA



HAQIQIY XALQChIL ShOIR

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,
Xalqim bor-u, yovdan o'chim olaman...

O'z ma'naviy qadriyatlar va milliy g'ururiga aylangan har bir xalqning o'z alломалии бор: Alisher Navoiy, Pushkin, Abay, Maxtumquli, To'xtag'ul va Berdaq siyomлари dunyo xalqlari o'zbek, rus, qorqalpoq, qirg'iz xalqlarini ko'z o'ngiga keltiradi.

Darhaqiqat, "Ma'naviyat dunyosiga qurilgan qo'rg'on qulamaydi", - deydilar daholarimiz. Toshkent Pediatriya tibbiyat instituti jamoasi faoliyatida bizning ma'naviyatimiz oynasiga aylangan siyomлари xotirlash, ular asos solgan fan sohasidagi ishlarni davom ettirish, yoshlarga ularning hayot haqidagi ibrat saboqlarini singdirish... va shu singari qadriyatlar an'anaga aylandi.

2020-yilning 25-noyabr tongi Toshkent pediatriya tibbiyat institutining bitiruvchi 6-bosqich talabalar yoshlar ishlari bo'yicha prorektor falsafa bo'yicha doktori (Dss) Muborak Ahmedovna Ahmedova bilan birga Toshkent shahridagi Alisher Navoiy istirohat bog'idiagi Adiblar xiyobniga tashrif buyurishdi.

Mehmonlar avval O'zbekiston tarixi muzeysiiga kirishdi. Muzey direktori va ma'muriyati institutimiz bitiruvchilarini ilqlik bilan qarshi oldilar. Muzey direktori O'zbekiston tarixi muzeining tashkil topishi va undagi boy arxeologik tadqiqot materiallari va qo'l yozmalar, muzey zallarning vazifalari xususida so'zlardilar.

Ma'naviy boyligimizga aylangan qadriyatlarimiz tarixini qiziqish ila tomosha qildik, ayniqsa, Toshkentimiz tarixi bilan bog'liq eksponatlar bizning e'tiborimizni o'ziga tortdi: tariximizning turli davrlari da yaratilgan noyob me'morchilik obidalari, ularning maketlari, ayniqsa, Toshkentning 12 darvozasi va qopqasi hamda darvozalarning 12 dona oltindan yasalgan kalitlari nodir san'at asari sifatida ko'z oldimizda turibdi...

Muzeyni ajib taassurotlar bilan aylanib chiqqach, uning kirish qismida – fayeda yig'ildik.

Toshkent Pediatriya tibbiyat institutining yoshlar ishlari bo'yicha prorektor Muborak Ahmedovna Ahmedova tadbirini shunday so'zlar bilan boshladi:



- Bu yerda biz qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandi Berdaqni xotirlash uchun to'plandik.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,
Xalqim bor-u, yovdan o'chim olaman...

Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirgi sharoitda ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Qoraqalpog'istondag'i ko'pgina maktablar, ko'chalar va kinoteatrlar, kutubxonalar shoirning nomiga qo'yilgan. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bu mukofot badiiy adabiyot, sa'nat va me'morchilik sohasidagi eng yaxshi ishlarga beriladi.

O'z ma'naviy qadriyatlar va milliy g'ururiga aylangan har bir xalqning alломалии бор: Alisher Navoiy, Pushkin, Abay, Maxtumquli, To'xtag'ul va Berdaq siyomлари dunyo xalqlari o'zbek, rus, qorqalpoq, qirg'iz xalqlarini ko'z o'ngiga keltiradi.

Berdimurot haqning quli

Sahroning sariq bulubul – deb kuylagan edi Berdimurot Qarg'aboy o'g'li hozirgi Mo'ynoq tumanining Amudaryoni Orolga tutashtirgan irmoqlar sohilidagi oddiy qoraqalpoq oilasida (1827-yili 27-noyabrda) tavallud topgan, "Dengiz balig'ini bermadi.." deb nola qilgan shoirning dunyoga kelishi haqida xalq orasida har xil rivoyatlar yuradi. Bu gaplarni eshitgan bugungi avlod o'sha paytlari ham Orol chekinib ketgan ekan-da, deb o'ylashi mumkin. Baliqlarga to'la daryo va dengizdan kambag'alning rizq-nasibasini Allohdan so'rav, yurtoshlarini sabr-toqat va bardoshshilikka da'vat etgan shoir bu dunyodan adolat va erkinlik izlagan edi.

O'z zamonasida ko'p jabru jafo chekkan Berdaqning zamondosh jiyani shoir Utешнинг ta'kidlashicha, Berdaqning onasiga qovun urug'idan qalin to'langan ekan...

Sahro kengligi va donoligini o'z ijdida mujassam etgan Berdaq dunyoviy tamaddundan ancha chetda turib, Arastu, Aflatun, Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli kabi allomalar asarlaridan qanday saboq olgani ham ma'lum. U oldin ovul mакtabida, keyin Qoraqum eshon madrasasida tahsil olib, Urganch va Buxoro safarlarida ham ma'rifat nurlarini izlagan edi.

Berdaqning "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Soliq", "Kerak", "Izlar edim" singari she'rlaridagi hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishi shoir dunyosining donoligini isbotlasa, uning "Shajara"si xalqlarimiz tarixini o'rganishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Berdaq "Shajara"si shoir va tarixchi uyg'unligini ko'ramiz.

Shoirlar qalam olg'ali,

Katka to'g'ri solgan emas.

deb kuylaydi Berdaq. Shoir poetikasining takrorlanmas bir qirrasi uning insoniy

mardligi. U o'zining haq so'zini aytishda na zolim qilichidan, na jallod doridan qo'rmas edi.

Bulturg'idan bu yil yomon,

Endi qanday bo'ldi zamon

Kambag'allar qolmay omon,

O'n tilladan keldi soliq.

O'z davrining qozi-beklariga, zo'ravonlariga qarshi ochiq-oydin haqiqatni she'r bilan bitish shoirlarning mardigagina nasib etadi. Shuning uchun ham, mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov Berdaq ijodi bilan tanishganidan so'ng: "Berdaq haqiqatning oldida yigit bo'lib goldi", - degan edi.

Toshkent Pediatriya tibbiyat institutining yoshlar ishlari bo'yicha prorektor Muborak Ahmedovna Ahmedova so'zi:

- Berdaq asarlari ko'p jahon tillariga tarjima qilingan. Ayniqsa, o'zbek tilida Mirtemir va Shuhrat domlalar, rus tilida Semjon Lipkin va Naum Grebnyovning tarjimalari mashhur. Lekin XX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixida Berdaq merosi bir-birini rad etadigan ziddiyatlari qarashlarga sabab bo'ldi. Sho'ro davrining g'oyaviy qarashlarida oktyabr to'ntarishigacha qoraqalpoq xalqining 0,2 foizigina savodli, ularning ko'pchiligi dindorlar degan haqiqatga zid ma'lumotlarni aytilar, shu bois Berdaq nafaqat savodli, balki dunyoviy ilmlarni egallagan alloma, shoir bo'lsa-da, reaksiyon dindorlar toifasiga kiritilardi. U Qoraqum eshonga qo'l bergan so'fi edi", - deyishgan edi. 1930-50-yillardagi adabiy-siyosiy bahslarda ba'zi olimlar Berdaqning "reaksion shoir"ligi tasdig'ini topmagach, o'sha olimlar yuzini teskari burib, g'irt ateist bo'lganini isbotlashga o'tishgan. "Yo'q, deydi taniqli olim Najim Davqoraev, - Berdaq dindor ham emas, ateist ham emas, u o'z xalqining dardi bilan yashab o'tgan haqiqiy klassik shoir".

Berdaq ijodi asl mohiyatini ochib, uning pok nomini tiklash yo'lidagi harakatlari sobiq markaz ko'rsatmalariga zid kelib, Najim Davqoraevga tuhmat toshlari otildi. Partiyadan o'chirilib, qamoqqa olinishi arafasida olamdan ko'z yumdi. Shundan keyin Berdaq ijodiga bag'ishlangan adabiy-ilmiy tadqiqotlarda uning ijodi kommunistik firqa g'oyalariga ham-ohangligi, vatanparvarligi va falsafiy-ateistik qarashlari to'g'risida nomzodlik va doktorlik disertatsiyalari himoya qilindi. Mustaqillik davriga kelibgina Berdaq ijodi haqidagi ortiqcha bahslar to'xtatilib, shoir merosining yangi qirralari ochildi.

Shod qilish uchun Vatanni,

Baxt yo'lini izlar edim.

Gulnoza Ahmedova.

O'zbek tili va adabiyoti, rus va lotin tillari kafedrasи katta o'qituvchisi, falsafa bo'yicha doktori (Dss)

QISHDA BAHOR SOG'INCHI...

Munisa ASLZODA

BAHOR SOG'INCHI

*Irmogqlar zerikdi qorlar bag 'rida,
Cho 'qqi oq qalpog 'in qo 'ymoqchi olib.
Boychechak otlanar ko 'klam sayriga,
Daraxt qor yukidan ketdi-ku tolib.*

*Qushchalar parvozga shaylanib qoldi-
Jajji yuragida bahor sog 'inchi.
Qorko 'rpa ostida uxbab yotuvdi,
Mitti maysaning ham yo 'qoldi tinchi.*

*Daraxtlar ufqqa boqishar shodon,
Quyosh botayotir qizarib alvon.
Demak, sog 'inch hissi chiqmoqda g 'olib,
Bahor yo 'llarini burar biz tomon.*

KULOL

*Qarab tursang, oddiy tuproqdan
Bir mo 'jiza etadi bunyod.
Uning ishi oddiy mehnatmas,
Do 'stlarim, bu chinakam ijod.*

*Loy kosayu, lagan, ko 'zani
O 'tga solib pishirar kulol.
Yuragining qo 'rini qo 'shib
Olov kuchin oshirar kulol.*

*Tuproq bilan dillashda u,
Olov bilan tillashadi u.
Mo 'jizalar tayyor bo 'lguncha
Osmon bilan sirlashadi u.*

Davron AKBAR

MUHABBAT

*Hayotning har onida,
Shodlig-u armonida,
Ishq bergan darmonida
Yashar muhabbat.*

*Mazmunga to 'lar damlar,
Mannun yurar odamlar;
Iqbol sari qadamlar
Tashlar muhabbat.*

*To 'ylar-u sho 'x yallani,
Beshik uzra allani,
Saodatliallarni
Boshlar muhabbat.
Sog 'intirib yuzlarni,
Axtartirib izlarni,
Hijronlarda ko 'zlarni
Yoshlar muhabbat.*

*Bog 'lasa, bog 'lar mahkam,
Paydomi, topmas barham,
Ahd, qarorda mustahkam
Ushlar muhabbat.
Hayotning har onida,
Shodlig-u armonida,
Ollohnning farmonida
Yashar muhabbat.*

YAQINLARIMGA ILTIJO

*Bir yerda tog 'ayu tag 'inmiz, axir,
Bir ko 'kda yashinu chaqinmiz, axir,
Begona emasmiz, yaqinmiz, axir –
Ko 'rishib turaylik, diydor g 'animat,
Yurakdan aytilar izhor g 'animat.*

*Bu dunyo – omonat, hayot – o 'tkinchi,
Bandaning o 'lguncha bo 'lmagay
tinchi,*

*Quvnaylik o 'zaro berib suyunchi –
Xushxabar xeshlarga qanot baxsh etsin,
Diydor davrasiga ziynat, naqsh etsin.*

*Qavmu qarindoshmiz, xeshu urug 'miz,
Bir-birimiz uchun yo 'lu yo 'riqmiz,
Qolmaylik diydordan zinhor quruq biz –
Doim bir-birimiz yo 'qlab turaylik,
Ko 'rishib, ko 'ngilni to 'qlab yuraylik.*

*Quvnatib ko 'zlarni, ko 'ngillarni ham,
Aka-uka, opa-singillarni ham,
Bo 'lashib og 'iru yengillarni ham,
Ko 'rishib turaylik yaqinlarim-ey,
Doim yaqin bo 'ling yaqinlarim-ey.*

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o 'qituvchilar tarkibi bo 'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e 'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRLARI: Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi;

DOTSENTLAR: Gospital bolalar xirurgiyasi; Teri tanosil, bolalar teri tanosil kasalliklari, OITS; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi.

O'QITUVCHILAR: Fuqarolik jamiyat.

ASSISTENTLAR: Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi; Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Ftiziatriya va pulmonologiya; Jamoat salomatligi va sog 'liqni saqlashni boshqarish; Bolalar yuqumli kasalliklari; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Onkologiya, bolalar onkologiyasi; Gematologiya; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi; Tibbiy va biologik kimyo; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Tibbiy radiologiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Anatomiya.

Tanlov muddati – e 'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog'ishamol ko 'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekti. 23.12.2020.

 <p>SALOMLATIK - TUMAN BOYLIGI XIZORIY VARDI - YOG'ISTOSSIZMA PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ORGAN TRUDOVOTO KOLLEKTIWA TASHKENTSKOGO PEDIATRICHESKOGO MEDITSINSKOGO INSIUTUTA</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxonjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas'ul: R. G'o 'chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinnbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro 'yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko 'chasi, 223</p>
			<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>